

MARKAZIY OSIYONING YANGI BURILISH NUQTASI – OCHIQ VA YUZMA-YUZ MULOQOTLAR O‘ZARO ISHONCHNI KUCHAYTIRISHGA ZAMIN YARATADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-noyabr kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.



Sammitda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, shuningdek, BMTning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda

ustuvor sohalarida qo‘shma loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Sammit avvalida davlatimiz rahbari Ozarbayjon Maslahat uchrashuvlari formatiga to‘la huquqli a‘zo sifatida qo‘shilganini mamnuniyat bilan e‘lon qildi. O‘zbekiston yetakchisi ta’kidlaganidek, bu qaror mushtarak tarix, qardoshlik rishtalari, ma’naviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bog‘langan xalqlarimiz manfaatlariga to‘liq javob beradi.

Shuningdek, ushbu strategik qadam Maslahat uchrashuvlariga kuchli shiddat berishiga, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, barqaror taraqqiyot masalalari bo‘yicha hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqish uchun yangi ufqlar ochishiga ishonch bildirdi.

— Mohiyatan biz Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida mustahkam ko‘prik barpo etmoqdamiz, hamkorlikning yagona makonini shakllantirishga yo‘l ochmoqdamiz. Bu ikki mintaqaning strategik bog‘liqligi va

barqarorligini kuchaytirishi shubhasiz, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

So‘ng O‘zbekiston yetakchisi keyingi yillarda mintaqada amalga oshirilayotgan integratsiya jarayonlarini qisqacha tahlil qildi. Ochiq muloqot va birgalikdagi faol sa‘y-harakatlar tufayli mintaqaga uchun dolzarb bo‘lgan qator muammolarga samarali yechimlar topilgani ta’kidlandi.

Hududiy masalalar uzil-kesil hal etildi, chegara punktlari ochildi, suv-energetika sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lga

qo‘yildi, transport aloqalari qayta tiklandi, faol savdo-investitsiyaviy va gumanitar aloqalar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

— Bugungi kunda Markaziy Osiyo — barqaror o‘shish va farovonlik uchun oldimizda yangi imkoniyatlar ochayotgan jadal taraqqiyot va samarali hamkorlik makonidir, — dedi davlatimiz rahbari.

Mintaqa jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashmoqda: investitsiyaviy jozibadorlik oshmoqda, uchinchi bozorlarga eksport qilish imkoniyatlari kengaymoqda,

tranzit salohiyati o‘smoqda. O‘tgan yili mintaqamamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 10,7 milliard dollarga yetdi, Markaziy Osiyoga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 17 foizga ko‘paydi.

Xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, terrorizm va ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilik tahdidlariga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilmogda.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARINING YETTINCHI MASLAHAT UCHRASHUIDAGI NUTQI

Hurmatli davlat rahbarlari!
Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvida sizlarni samimiy qutlayman.

O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

Bugun bizning qardosh xalqlarimiz uchun haqiqatan ham tarixiy kun. Biz Ozarbayjon Respublikasini Maslahat uchrashuvlarimiz formatiga to‘la huquqli a‘zo sifatida qabul qilish to‘g‘risida prinsipial qaror qabul qilmoqdamiz.

Ushbu strategik qadam umumiy tarix, qardoshlik rishtalari, ma’naviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bog‘langan xalqlarimiz manfaatlariga to‘liq javob beradi.

Men qat’iy ishonamanki, qardosh Ozarbayjonning qo‘shilishi Maslahat uchrashuvlarimizga kuchli shiddat beradi, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, barqaror taraqqiyot masalalari bo‘yicha hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqish uchun yangi ufqlarni ochadi.

Mohiyatan biz Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida mustahkam ko‘prik barpo etmoqdamiz, hamkorlikning yagona makonini shakllantirishga yo‘l ochmoqdamiz. Bu ikki mintaqaning strategik bog‘liqligi va barqarorligini kuchaytirishi shubhasiz.

Ushbu muhim qaror qabul qilingani uchun barcha hamkasblarimga samimiy minnatdorlik bildiraman va Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Geydarovich Aliyevni Maslahat uchrashuvlarimiz formatiga to‘la huquqli

ishtirokchi bo‘lib qo‘shilgani bilan takrirlayman.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari Kaxa Imnadze janoblarini ushbu tarixiy sammitimizdagi ishtiroki bilan qutlaymiz.

Bugun mana shunday jo‘shqin muhitda hamkorligimizni yanada rivojlantirish bo‘yicha sizlar bilan atroflicha fikrlashib, muhim qarorlar qabul qilamiz deb ishonaman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!
Qadrlı do‘stlar!

Biz ilk uchrashuvimizdan buyon o‘tgan qisqa davrda juda katta, ahamiyatiga ko‘ra tarixiy yo‘lni bosib o‘tdik. Ochiq muloqot va birgalikdagi faol sa‘y-harakatlarimiz natijasida mintaqamiz uchun dolzarb bo‘lgan qator muammolarga samarali yechimlar topishga muvaffaq bo‘ldik.

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekistonning raisligi davrida hamkorligimiz salohiyatini yanada oshirish maqsadida 20 dan ortiq yirik tadbirlar o‘tkazildi.

Bosh vazir o‘rinbosarlari darajasida mintaqalararo hamkorlik forumi ishi yo‘lga qo‘yildi, ilk bor mudofaa idoralari, maxsus xizmatlar rahbarlari, shuningdek, geologiya, sanoat, qishloq

eksport imkoniyatlari kengaymoqda, tranzit salohiyati o‘smoqda.

O‘tgan yili mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro savdo hajmi 10,7 milliard AQSH dollariga yetdi. Mintaqamizga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 17 foizga ko‘paydi.

Mamlakatlarimiz xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash masalalari, terrorizm va ekstremizm tahdidlari, transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida tizimli chora-tadbirlarni ko‘rmoqda.

Hamjihatlik va umumiy taraqqiyot sari intilishning kuchayishi Markaziy Osiyoning xalqaro munosabatlar subyekti sifatidagi maqomini mustahkamlash va global miqyosdagi rolini oshirishga xizmat qilmoqda.

“Markaziy Osiyo plyus” formatidagi munosabatlar kuchaydi. Mintaqamiz nufuzli xalqaro maydonlarda yagona pozitsiyani namoyon etmoqda.

Formatimizga Ozarbayjonning qo‘shilishi bilan mintaqamizning dunyo hamjamiyatidagi ovozi yanada ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasiz.

Hurmatli hamkasblar!

O‘zbekistonning raisligi davrida hamkorligimiz salohiyatini yanada oshirish maqsadida 20 dan ortiq yirik tadbirlar o‘tkazildi.

Bosh vazir o‘rinbosarlari darajasida mintaqalararo hamkorlik forumi ishi yo‘lga qo‘yildi, ilk bor mudofaa idoralari, maxsus xizmatlar rahbarlari, shuningdek, geologiya, sanoat, qishloq

xo‘jaligi, ekologiya va madaniyat vazirlari yig‘ilishlari o‘tkazildi. Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollari muloqotini muvaffaqiyatli o‘tkazdik.

Bularning barchasi mintaqaviy sheriklikning institutsional asoslari va mexanizmlari tizimli ravishda kengayib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, yaqinda UNESCO Bosh konferensiyasining ilk bor mintaqamizda — Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan tarixiy 43-sessiyasi muvaffaqiyatli o‘tishida qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun barchangizga minnatdorlik bildiraman.

Hech shubhasiz, ushbu noyob voqea Markaziy Osiyoning ishonchli va ahamiyatli sherik sifatidagi imijining yana bir tasdiq‘idir.

Hurmatli hamkasblar!

Murakkab va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan xalqaro-siyosiy jarayonlar sharoitida o‘zaro hamjihatligimiz va bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ishonchim komilki, bugun biz mintaqamizning Yangi Markaziy Osiyo sifatidagi tarixiy uyg‘onish davri ostonasida turibmiz.

Biz hamkorligimizning institutsional asoslarini yanada mustahkamlash, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga nisbatan tahdidlarga o‘zaro muvofiqlashtirilgan javobni ishlab chiqishni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘yganimiz.

Davomi 2-betda

TURKMANISTON PREZIDENTI O‘ZBEKISTONDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov 16-noyabr kuni davlat tashrifi bilan Toshkentga keldi.

Oliy martabali mehmonni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Ikki davlat yetakchilari “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida suhbat o‘tkazdilar.

Muloqot chog‘ida ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

So‘ng Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni shohsupaga taklif qildi.

Harbiy orkestr ijrosida davlat madhiyalari yangradi. Faxriy qorovul tantanali ravishda Prezidentlar oldidan saf tortib o‘tdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 17-noyabr kuni bo‘lib o‘tadi.

Oliy darajadagi muzokaralar davomida O‘zbekiston — Turkmaniston strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari muhokama qilinadi.

O‘ZA

BIRGALIKDA BARPO ETILAYOTGAN KUCHLI, BARQAROR VA FAROVON MINTAQAGA

DAVLATIMIZ RAHBARINING “MARKAZIY OSIYO YANGI DAVR OSTONASIDA” MAQOLASINI O‘QIB...

Prezidentimizning “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” maqolasi yangi Markaziy Osiyoni barpo etish borasidagi sa‘y-harakatlar va natijalar, mintaqaning besh davlati hamda ularda yashayotgan xalqlar uchun ulkan ahamiyatga ega masalalarga bag‘ishlangani nuqtayi nazaridan nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaqaga aholisi uchun dolzarb ahamiyatga ega. Maqolada ta’kidlanganidek, “Markaziy Osiyo o‘z taraqqiyotining yangi, tarixiy ahamiyatga molik bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Bugun biz chinakam birdamlik bosqichiga o‘tyapmiz. Bizning mintaqamizda uzoq yillar davomida ilk bor birgalikda oldinga qarab borishimiz uchun poydevor bo‘lib xizmat qilayotgan o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va hurmat muhiti shakllanmoqda”.



Davomi 3-betda



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARINING YETTINCHI MASLAHAT UCHRASHUVIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Biz uchun hozirning o‘zida mintaqamizni bundan 10-20-yildan keyin qanday ko‘rishni xohlashimiz bo‘yicha aniq tushunchaga ega bo‘lish muhimdir.

Shu munosabat bilan qator takliflarni ilgari surmoqchiman.

Birinchidan, hamkorlik mexanizmlari va shartnomaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish prinsipial ahamiyatga egadir.

Uchrashuvlarimizni mintaqaviy muloqotning maslahat shaklidan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Ushbu maqsad yo‘lida formatimiz institutsional va tashkiliy asoslarini izchil mustahkamlashni nazarda tutadigan Maslahat uchrashuvlari to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish, rotatsiya asosida faoliyat yuritadigan Kotibiyatni ta‘sis etish, milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomini Prezidentlarning maxsus vakillari darajasiga ko‘tarishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, xalq diplomatiyasi sohasidagi qadriyat va an‘analimizga tayangan holda, boy hayotiy tajriba va obro‘-e‘tiborga ega jamoat arboblardan iborat Oqsoqollar kengashini tuzishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu mamlakatlarimizda avlodlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, shuningdek, umummintaqaviy hamjihatlik va o‘ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi deb o‘ylaymiz.

Ikkinchidan, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mintaqa mamlakatlarining o‘zaro savdosi va umumiy tashqi savdo aylanmasi salohiyati o‘rta istiqbolida ular hajmlarini kamida 1,5-2 barobar oshirish imkonini beradi.

Ma‘muriy to‘siqlarga barham berish, soliq va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rish vaqti allaqachon yetgan deb hisoblayman.

Bizning nuqtayi nazarimizda, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha masalalarni qamrab oladigan, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha 2035-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan keng qamrovli mintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish savdo hajmlarini sezilarli darajada oshirish uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradi.

Yaqin istiqbolida umumiy investitsiya makoni to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qilishni, ayniqsa, muhim deb hisoblaymiz. Bu bizing investitsiya siyosatimizning umumiy tamoyillarini mustahkamlash, investorlar huquqlarini har tomonlama himoya qilishni ta‘minlash, keng mintaqamizda yagona investitsiya muhitini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini bergan bo‘lar edi.

Elektron savdo sohasida salohiyat va yangi imkoniyatlardan foydalanishni muhim, deb hisoblaymiz. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ushbu sohaning bozori faqat Markaziy Osiyoning o‘zida yaqin o‘n yillikda 150 milliard dollargacha o‘sishi mumkin.

Shu munosabat bilan, bizing yondashuvlarimizni uyg‘unlashtirish, virtual savdo maydonchalari va ishonchli raqamli to‘lov tizimlarini yaratishni yengillashtirish imkonini beradigan Elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, yuqori texnologiyali mintaqaviy infratuzilmalar va transport-logistika salohiyatini birgalikda rivojlantirish mintaqamiz kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

Elektr stansiyalari va uzatish tarmoqlari, avtomobil va temir yo‘llar, chegara orqali o‘tkazish punktlari, “yashil yo‘laklar”, optik-tolali liniyalar va boshqa obyektlarni qurish va modernizatsiya qilish bo‘yicha strategik ahamiyatga ega bo‘lgan umummintaqaviy loyihalarni amalga oshirish uchun sa‘y-harakatlarimizni birlashtirishni taklif etamiz.

Biz mintaqalararo transport bog‘liqligini mustahkamlash maqsadida “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li, shuningdek, Transafg‘on transport yo‘lagi qurilishi kabi loyihalarga ustuvor ahamiyat qaratamiz.

Mintaqamizni Yevropa mamlakatlari bilan bog‘laydigan Transkaspий yo‘laklari bizing oldimizda katta imkoniyatlar eishigini ochmoqda.

Bu yo‘nalishlardagi ishlarni muvofiqlashtirish uchun mamlakatlarimiz bosh vazirlari o‘rinbosarlari darajasida Infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha kengash tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

To‘rtinchidan, mintaqamizning gullab-yashnashi va farovonligi bevosita bizing mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlarimizga bog‘liq.

Bugun qabul qilinayotgan Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi, shuningdek, Tahdidlar va xavflar katalogi ushbu sohadagi hamkorligimiz samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berishiga ishonaman.

Butun mintaqamiz xavfsizligi va barqaror taraqqiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadigan Afg‘onistondagi vaziyat alohida diqqatimiz markazida bo‘lishi kerak.

Biz qat‘iy ishonamizki, Afg‘onistonni infratuzilmaviy, energetika va transport loyihalarimizga integratsiyasi umumiy

mintaqaviy siyosatimizning ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Fursatdan foydalanib, yaqinda bo‘lib o‘tgan “Farg‘ona tinchlik forumi”ni qo‘llab-quvvatlaganingiz uchun sizlarga alohida minnatdorlik izhor etaman. Biz mintaqamizda yaqin muloqot va o‘zaro ishonch ruhini mustahkamlashga xizmat qiladigan ushbu ekspertlik platformasini muntazam o‘tkaziladigan xalqaro anjumanga aylantirish tarafdorimiz.

Beshinchidan, ekologiya, iqlim va suv resurslari taqchilligi masalalari e‘tiborimiz markazida bo‘lishi lozim.

Birinchi Samarqand iqlim forumida Markaziy Osiyoni “yashil” rivojlantirish konsepsiyasi taqdim etilgan edi. Ushbu hujjat qabul qilinishini qo‘llab-quvvatlashingizga umid qilamiz.

Mintaqada suv taqchilligi tobora o‘shib borayotgani va uning barqaror rivojlanishdagi salbiy oqibatlarini hisobga olib, 2026-2036-yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi” deb e‘lon qilishni taklif etamiz.

Qo‘shni Afg‘onistonni Amudaryo havzasi suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha mintaqaviy muloqotga faol jalb etishni muhim deb hisoblaymiz.

Soha kadrlarini professional tayyorlashga investitsiya jalb etmasdan turib, suv resurslarini samarali boshqarish imkonsiz. Shu maqsadlarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti bazasida Suv xo‘jaligi sohasida kompetensiyalar mintaqaviy markazini tashkil etishni rejalashtirganmiz.

Sizlarga ma‘lumki, kelgusi yilda mamlakatimizda Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumi o‘tkazishni reja qilganmiz. Bu borada sizlarning qo‘llab-quvvatlashingizga va anjumanda faol ishtirok etishingizga umid qilamiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish birodar xalqlarimizning umumiy intilishlariga to‘liq javob beradi.

Bizning mintaq ming yillar davomida jahon sivilizatsiyasi, buyuk g‘oyalar yaratiladigan, xalqlarni madaniy va ma‘naviy jihatdan o‘zaro boyitadigan markazlardan biri bo‘lib kelgan.

Kecha biz sizlar bilan birgalikda Islom sivilizatsiyasi markazida bo‘ldik. Ushbu markaz ilmiy bilimlar va g‘oyalar yaratish, tadqiqotlar olib borish, umumiy madaniy-tarixiy merosimizni ommalashtirish uchun noyob platformadir.

Markaz yoshlarimiz, ularning ilmiy va ma‘naviy yuksalishi uchun xizmat qiladigan maskanga aylanishiga umid qilamiz.

Kuni kecha Toshkentda ma‘naviy meros va ma‘rifatparvarlik g‘oyalariga bag‘ishlangan birinchi Xalqaro kongressni o‘tkazdik. Bunday uchrashuvlarni muntazam tashkil etishni zarur deb hisoblayman. Kongressni har yili, formatimizda raislik qiluvchi mamlakatda o‘tkazib borishni taklif etamiz.

Shu o‘rinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining mintaqamiz taniqli olim va mutafakkirlarining global ma‘rifatparvarlik rivojiga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlangan Maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish borasida O‘zbekistonning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashingizga umid qilamiz.

Bundan tashqari, Mintaqaviy ilmiy tadqiqotlar jamg‘armasini tuzishni taklif etamiz. Bu davlatlararo ilmiy loyihalarni moliyalashtirish, akademik hamjamiyatni rag‘batlantirish, mintaqaning intellektual salohiyatini mustahkamlash, shuningdek, mamlakatlarimizning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilish uchun sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy

etish bo‘yicha imkoniyatlarimizni kengaytirishga xizmat qilgan bo‘lar edi.

Aziz do‘stlar!

Bugun qabul qilinayotgan hujjatlar va ilgari surilgan tashabbuslar zamirida barchamiz uchun umumiy bo‘lgan barqaror, xavfsiz va gullab-yashnagan Markaziy Osiyoni barpo etish maqsadi mujassamdir.

Alohida ta‘kidlamoqchiman: bizing kuchimiz — birlikda, muvaffaqiyat sari yo‘limiz — do‘stlik va hamkorlikda.

Faqat hamjihat bo‘lib, o‘zaro hurmat, birdamlik va strategik yondashuvlarga tayanib, ezgu maqsadlarimizga erishishimiz mumkin.

Hurmatli hamkasblar!

Sizlarga bugungi ochiqlik va ischchanlik ruhidagi chiqishlaringiz, ilgari surilgan konstruktiv g‘oyalar va aniq harakat rejalari uchun yana bir bor samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Fursatdan foydalanib, O‘zbekiston va xalqimiz sha‘niga, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar hamda kengashdagi raisligimiz haqida bildirgan samimiy so‘zlaringiz uchun barchangizga tashakkur aytaman.

Hech shubhasiz, sizlar ilgari surgan barcha takliflarning amalga oshirilishi Markaziy Osiyoda do‘stlik, o‘zaro ishonch va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadi.

Aziz do‘stlar!

Fursatdan foydalanib, Turkmaniston Prezidenti, hurmatli Serdar Gurbanguliyevich Berdimuhamedovni 2026-yilda, endilikda yangi — “Markaziy Osiyo va Ozarbayjon” formatida o‘tadigan davlatlar rahbarlarining Maslahat uchrashuvida raislikni qabul qilib olgani bilan chin dildan tabriklayman.

Biz Turkmanistonning bo‘lajak raisligi davridagi sa‘y-harakatlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyormiz va bu yo‘lda Sizga katta yutuqlar tilab qolaman.

MARKAZIY OSIYONING YANGI BURILISH NUQTASI — OCHIQ VA YUZMA-YUZ MULOQOTLAR O‘ZARO ISHONCHNI KUCHAYTIRISHGA ZAMIN YARATADI

Boshlanishi 1-betda

Mintaqaning xalqaro munosabatlar subyekti sifatidagi mavqei mustahkamlanib, global masalalardagi roli ortib bormoqda, “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi munosabatlar kuchaymoqda, mintqa nufuzli xalqaro maydonlarda yagona pozitsiya bilan maydonga chiqmoqda.

Formatga Ozarbayjonning qo‘shilishi bilan mintaqaning jahon hamjamiyatidagi ovozi yanada salmoqli bo‘lishiga ishonch bildirildi.

O‘zbekiston raisligi davrida 20 dan ortiq yirik tadbirlar o‘tkazilgani ta’kidlandi. Bosh vazir o‘rinbosarlari darajasida Hududlararo hamkorlik forumi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, ilk bor mudofaa idoralari, maxsus xizmatlar rahbarlari, shuningdek, geologiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ekologiya va madaniyat vazirlarining yig‘ilishlari o‘tkazildi. Kuni kecha Toshkentda Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Ushbu tadbirlarning barchasi mintaqaviy sheriklikning institutsional asoslari va mexanizmlari tizimli ravishda mustahkamlanib borayotganidan yaqqol dalolat ekani ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari murakkab va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan xalqaro siyosiy jarayonlar sharoitida mintaq mamlakatlarining hamjihatligi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidladi.

— Ishonchim komilki, bugun biz mintaqamizning Yangi Markaziy Osiyo sifatidagi tarixiy uyg‘onish

davri ostonasida turibmiz. Biz hamkorligimizning institutsional asoslarini yanada mustahkamlash, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga nisbatan tahdidlarga o‘zaro muvofiqlashtirilgan javobni ishlab chiqishni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘yganimiz. Biz uchun hozirning o‘zida mintaqamizni bundan 10-20 yildan keyin qanday ko‘rishni xohlashimiz bo‘yicha aniq tushunchaga ega bo‘lish muhimdir, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Avvalo, bugungi uchrashuvlarni mintaqaviy muloqotning maslahatlashuv shaklidan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirish taklif qilindi. Maslahat uchrashuvlari to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish, navbatma-navbat ishlaydigan Kotibiyatni ta‘sis etish, milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomini Prezidentlarning maxsus vakillari darajasiga ko‘tarish bu boradagi dastlabki qadamlar bo‘lishi mumkinligi ta’kidlandi.

Shuningdek, Prezidentimiz boy hayotiy tajribaga ega, obro‘-e‘tiborli jamoat arboblardan iborat Oqsoqollar kengashini tuzish tashabbusini ilgari surdi, bu avlodlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, shuningdek, umummintaqaviy hamjihatlik va o‘ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston yetakchisi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqish istiqbolida o‘zaro savdo va umumiy tashqi savdo aylanmasi hajmini 1,5-2 barobar oshirish imkonini berishini ko‘rsatib o‘tdi.

Ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish, soliq va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalaridan birgalikda foydalanish muhimligi ta’kidlandi.

— Bizning nuqtayi nazarimizda, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha masalalarni qamrab oladigan, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha 2035-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan keng qamrovli mintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish savdo hajmlarini

sezilarli darajada oshirish uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradi, — dedi davlatimiz rahbari.

Bundan tashqari, mintaqada yagona investitsiya muhitini shakllantirish uchun Umumiy investitsiya makoni to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qilish zarurligi qayd etildi. Sohadagi yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, virtual savdo maydonchalari va ishonchli raqamli to‘lov tizimlarini yaratishga qaratilgan Elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Mintaqaning yuqori texnologik infratuzilmasi va transport-logistika salohiyatini birgalikda rivojlantirish mintqa kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega ekani alohida ta’kidlandi.

— Elektr stansiyalari va uzatish tarmoqlari, avtomobil va temir yo‘llar, chegara orqali o‘tkazish punktlari, “yashil yo‘laklar”, optik-tolali liniyalar va boshqa obyektlarni qurish va modernizatsiya qilish bo‘yicha strategik ahamiyatga ega bo‘lgan umummintaqaviy loyihalarni amalga oshirish uchun sa‘y-harakatlarimizni birlashtirishni taklif etamiz, — dedi mamlakatimiz yetakchisi.

“Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li va Transafg‘on transport yo‘lagi qurilishi mintaqalararo transport bog‘liqligining ustuvor loyihalari sifatida qayd etildi. Hududni Yevropa davlatlari bilan bog‘laydigan Transkaspiy yo‘nalishlari katta imkoniyatlarga ega ekaniga e‘tibor qaratildi.

Ushbu yo‘nalishlardagi ishlarni muvofiqlashtirish uchun Bosh vazir

o‘rinbosarlari darajasida Infratuzilmani rivojlantirish kengashini tuzish taklif qilindi.

Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash nuqtayi nazaridan sammitda qabul qilinayotgan hujjatlar — Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi hamda Tahdidlar va xatarlar katalogi yuqori baholandi.

Afg‘onistondagi vaziyatning xavfsizlikka ta‘sirini hisobga olgan holda va butun mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun ushbu mamlakatni mintaqaviy infratuzilma, energetika hamda transport loyihalariga integratsiya qilish muhimligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari yaqinda o‘tkazilgan “Farg‘ona tinchlik forumi”ni an‘anaviy xalqaro forumga aylantirish zarurligini bildiradi.

Mintaqa mamlakatlari uchun ekologiya, iqlim va suv resurslari taqchilligi masalalari tobora dolzarb bo‘lib borayotgani sharoitida Markaziy Osiyoning “yashil” taraqqiyot konsepsiyasini tez fursatda qabul qilish muhimligi qayd etildi.

Mintaqada suv tanqisligi ortib borayotganini hisobga olib, 2026-2036-yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi” deb e‘lon qilish taklif etildi.

Qo‘shni Afg‘onistonni Amudaryo havzasi suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha mintaqaviy muloqotga faol jalb qilish maqsadga muvofiqligi ta’kidlandi.

Suv xo‘jaligi sohasida kadrlarni professional tayyorlashga sarmoya kiritish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti negizida Suv xo‘jaligi sohasidagi mintaqaviy vakolatlar markazini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi.

Davlatimiz rahbari kelgusi yili yurtimizda o‘tkazilishi rejalashtirilgan suvni tejash bo‘yicha Butunjahon forumida faol ishtirok etishga chaqirdi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor

qaratildi. Shu ma‘noda, Islom sivilizatsiyasi markazi yoshlar, ularning ilmiy va ma‘naviy ma‘rifati uchun jozibador maskanga aylanishiga umid bildirildi.

Shuningdek, sammit arafasida poytaxtimizda ilk bor o‘tkazilgan Ma‘naviy meros va ma‘rifat masalalari bo‘yicha xalqaro kongressni muntazam o‘tkazib borish taklif etildi.

Ushbu mavzuni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti mintaqamizning atqoli olim va mutafakkirlarining global ma‘rifat rivojiga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlangan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi.

Ilmiy-ta‘lim kooperatsiyasi doirasida davlatlararo loyihalarni moliyalashtirish, akademik hamjamiyatni rag‘batlantirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun Ilmiy tadqiqotlar fondini tashkil etish taklif qilindi.

O‘zbekiston yetakchisi so‘zining yakunida qabul qilinayotgan hujjatlar va ilgari surilayotgan tashabbuslarda barqaror, xavfsiz va farovon Markaziy Osiyoni barpo etishdek umumiy maqsad mujassam ekanini ta’kidladi.

— Alohida ta’kidlamoqchiman: bizing kuchimiz — birlikda, muvaffaqiyat sari yo‘limiz — do‘stlik va hamkorlikda. Faqat hamjihat bo‘lib, o‘zaro hurmat, birdamlik va strategik yondashuvlarga tayanib, ezgu maqsadlarimizga erishishimiz mumkin, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Turkmaniston Prezidentini 2026-yilda davlat rahbarlarining “Markaziy Osiyo va Ozarbayjon” yangi formatida bo‘lib o‘tadigan Maslahat uchrashuvida raislikni qabul qilib olgani bilan tabrikladi.

So‘ng Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon yetakchilari so‘zga chiqdi. BMTning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi rahbari Xaxa Imnadze BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning murojaatini o‘qib eshittirdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha Qo‘shma bayonot qabul qilindi.

Bundan tashqari, Prezidentlar quyidagi muhim hujjatlarni qabul qildilar:

— **Qirg‘iz Respublikasining 2027-2028-yillarda BMT Xavfsizlik Kengashining muvaqqat a‘zoligiga nomzodi yuzasidan BMTga a‘zo davlatlarga murojaat;**

— **Ozarbayjon Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida to‘la huquqli a‘zo sifatida ishtirok etishi to‘g‘risidagi qaror;**

— **Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi;**

— **Markaziy Osiyo xavfsizligiga xatarlarning katologi va ularning oldini olish bo‘yicha 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan choralar.**

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvida bugun sifat jihatidan yangi davr boshlandi. Muzokaralarni ochiq va yuzma-yuz olib borish an‘anasi qo‘shni davlatlar o‘rtasida ishonchni kuchaytirishga zamin yaratmoqda.

Toshkentdagi uchrashuv ana shu ijobiy dinamikaning uzviy davomi sifatida Markaziy Osiyoning yangi burilish nuqtasiga aylanganini yana bir bor tasdiqladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining tarixiy sammiti dasturidagi voqealar yakunlangach, “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbari Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Ozarbayjon Prezidentlarini samimiy kuzatib qo‘ydi.

17-noyabr kuni Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning mamlakatimizga davlat tashrifining asosiy tadbirlari bo‘lib o‘tadi.

Taklif

O‘zbekiston bugun jadal urbanizatsiya davrini boshdan kechirmoqda. Bu ko‘p jihatdan asosiy ma‘muriy tuzilmalar, yetakchi universitetlar, shuningdek, sanoat va madaniyat markazlari joylashgan mamlakat poytaxtida o‘z aksini topmoqda.

Bunday holat tabiiy ravishda Toshkentni ichki migratsiya “ohanabo”siga aylantiradi. Bu esa demografik bosimni kuchaytiradi. Uy-joy, transport, energetika va kommunal xizmatlarga ehtiyoj tez o’sadi. Biroq infratuzilma ko‘p hollarda aholi o‘shish sur‘atidan ortda qolmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning so‘nggi tadqiqotlarida shunga o‘xshash nomutanosibliklarga ega shaharlar surunkali tirbandlik, energetika uzilishi, ekologik vaziyat yomonlashuvi va hayot sifati pasayishiga duch kelishi ta’kidlanmoqda. Shu bilan birga, Jahon banki ekspertlari ta’kidlaganidek, innovatsiyalar va investitsiyalarsiz shaharlar barqaror rivojlanish talablariga javob bera olmaydi.

2025-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, 19,3 milliondan ortiq kishi (aholining qariyb 51 foizi) shaharlarda yashaydi, qishloq joylarda esa 18,6 million kishi istiqomat qilmoqda. Bu esa aholining barqaror o‘shishi va qishloq joylardan ketishi davom etayotganini aks ettiradi. Toshkent shahrida rasman 3,1 million kishi ro‘yxatga olingan, biroq ichki migrantlar va talabalarni hisobga olganda, shaharda har kuni bo‘ladigan aholining haqiqiy soni bu raqamdan 30-35 foiz oshishi mumkin. Bu yo‘l-transport tizimi, energetika va kommunal tarmoqlarga yuklamani keskin oshirmoqda.

Bunda ta’lim infratuzilmasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki mamlakatdagi 222 ta oliy o‘quv yurtining 98 tasi Toshkent shahrida joylashgan. Bunday notekis taqsimot poytaxtga yoshlarning ommaviy oqimiga olib keldi. Bu esa uy-joy, transport va shahar xizmatlarining ortiqcha yuklanishi muammosini yanada og‘irlashtirmoqda.

Yana bir omil — suv, elektr va gaz ta’minoti tarmoqlaridagi bosimni yetarlicha tahlil qilmay, ko‘p qavatli uylarni faol qurish, bu esa iste’mol yuqori bo‘lgan paytlarda kommunal xizmatlarda tez-tez uzilishlarga olib keladi.

Toshkentning eng dolzarb muammolaridan yana biri — tirbandlik. Tig‘iz soatlarda o‘rtacha yo‘l vaqti 50-60 daqiqadan oshadi. So‘nggi sakkiz yilda avtomobil soni deyarli ikki baravar ko‘paydi, yo‘l tarmog‘ining uzunligi esa 0,5 foiz kamaydi.

Bu, o‘z navbatida, nomutanosiblikni keltirib chiqaradi va magistrallarning surunkali bosim ostida qolishiga olib keladi.

BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, 2040-yilga borib dunyo aholisining qariyb 60 foizi shaharlarda yashaydi. Yuk mashinalari, yengil avtomobillar va havo transporti ikki baravar ko‘payadi, chiqindilar hajmi esa oshib boradi.

Jahon banki hisobotida esa shaxsiy transportdan foydalanishning o‘shishi



Jamshid SHARIPOV,
“Taraqqiyot strategiyasi”
bo‘lim boshlig‘i

tirbandliklarning ko‘payishi, havoning ifloslanishi va ish o‘rinlari kamayishi hamda ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati pasayishiga olib kelayotgani ta’kidlanadi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining hududlarni kompleks rivojlantirish va urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish bo‘yicha maqsadlarini to‘liq amalga oshirish uchun “Taraqqiyot strategiyasi” markazi tomonidan yetakchi shaharlarda samaradorligini isbotlagan va O‘zbekistonning yirik shaharlari sharoitiga moslashtirish mumkin bo‘lgan innovatsion chora-tadbirlar



majmuasi taklif etilmoqda. Ushbu tavsiyalarda raqamli texnologiyalar, nomarkazlashtirilgan boshqaruv modellari va “yashil” amaliyotlarni birlashtirib, shahar muhitining barqarorligini ta’minlaydigan tizimli yechimlar keltirilgan.

Jumladan, Toshkent shahrida surunkali tirbandlik muammosini “Xizmat sifatidagi mobillik” konsepsiyasini joriy etish orqali hal qilish mumkin. Bunday tizim allaqachon Xelsinkida muvaffaqiyatli ishlatilmoqda. U yerda metro, avtobus, taksilar, karshering va

velosipedlarni yagona raqamli platformaga birlashtirish atigi ikki yil ichida shaxsiy avtomobillardan foydalanishni 12 foiz kamaytirish imkonini berdi.

Yana bir yo‘nalish — harakatni boshqarishning intellektual tizimlarini qo‘llash, jumladan, real vaqt rejimida yo‘l harakatini kuzatish va prognozlash, intellektual svetoforlarni boshqarish, sun‘iy intellekt yordamida trafikni taxmin qilish va intellektual avtoturargoh yechimlari. Xitoyning aholi zich joylashgan



“Toshkent shahrida surunkali tirbandlik muammosini ‘Xizmat sifatidagi mobillik’ konsepsiyasini joriy etish orqali hal qilish mumkin. Bunday tizim allaqachon Xelsinkida muvaffaqiyatli ishlatilmoqda. U yerda metro, avtobus, taksilar, karshering va velosipedlarni yagona raqamli platformaga birlashtirish atigi ikki yil ichida shaxsiy avtomobillardan foydalanishni 12 foiz kamaytirish imkonini berdi.

megapolislari, masalan, Shanxayda sun‘iy intellektga asoslangan harakatni boshqarish texnologiyalarini joriy etish orqali tirbandlikni 18 foiz kamaytirish va o‘rtacha sayohat vaqtini 9 daqiqacha qisqartirishga erishildi.

Toshkent shahrida shu kabi yechimlarni moslashtirish 2030-yilga borib yo‘llardagi tirbandlik darajasini 20-25 foiz kamaytirish va tig‘iz vaqtlarda o‘rtacha harakatlanish vaqtini hozirgi 60 daqiqadan 45 daqiqagacha qisqartirish imkonini beradi.

Shaharlarda energiya ta’minoti barqarorligini oshirish uchun virtual elektr stansiyalari va mahalliy mikroarmoglar kabi nomarkazlashtirilgan yechimlardan foydalanish imkoniyatini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Germaniyada Next Kraftwerke loyihasi 15 mingga yaqin kichik energiya manbalarini yagona tarmoqqa birlashtirdi. Bu esa energiya ta’minoti barqarorligini oshirdi. Next Kraftwerke kompaniyasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, qurilmalar quvvatni birlashtirish orqali yirik markaziy elektr stansiyalari yoki sanoat iste’molchilari bilan bir xil xizmatlarni taqdim etishi, ularni to‘plashi va keyinchalik xuddi shu bozorlarda sotishi mumkin. AQSHda — Bruklin hududida pilot mikroarmog aholiga to‘g‘ridan to‘g‘ri Brooklyn Microgrid blokcheyn platformasi orqali energiya almashish imkonini berdi.

Toshkent shahri sharoitida bunday texnologiyalar elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlarni 30 foiz kamaytirishi hamda nomarkazlashtirilgan generatsiya va yuklamani optimallashtirish orqali 15 foizgacha energiya tejallishini ta’minlashi mumkin.

Ekologik vaziyatni yaxshilash uchun “shaharning raqamli egizagi”ni joriy etish istiqbolli vosita bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuv transport, energetika va ekologik

jarayonlarni modellashtirish, rivojlanishning turli ssenariylari oqibatlarini baholash imkonini beradi.

“Virtual Singapore” loyihasi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Unda davlat organlari raqamli modeldan siyosatni ishlab chiqish uchun, kompaniyalar va startaplar shahar xizmatlari va atrof-muhit sohasida ilovalar yaratish uchun, tadqiqotchilar esa shahar muhitining aholi salomatligi va iqlim jarayonlariga ta’sirini tahlil qilish uchun foydalanadi.

Toshkent uchun shunga o‘xshash platformani joriy etish yanada oqilona shaharsozlik, yashil hududlar holatini kuzatish va havo sifatiini boshqarish uchun asos bo‘lishi mumkin. “Raqamli egizak”dan foydalanish issiqlik orollarni samarali prognozlash, ko‘kalamzorlashtirish uchun maqbul joylarni aniqlash va ifloslanish darajasini nazorat qilish imkonini beradi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, bu 2030-yilga borib yashil maydonlarni 15 foiz oshirishi, shuningdek, aniqroq rejalashtirish va yashil texnologiyalarni joriy etish orqali issiqlik orollari ta’siri va PM 2,5 konsentratsiyasini 10-12 foiz kamaytirishi mumkin.

Eskingan suv tarmoqlari va katta suv yo‘qotishlari muammosini hal qilish uchun Toshkent “aqlii” boshqaruv tizimiga o‘tishi kerak. Xorijiy tajriba bunday yechimlarning yuqori samaradorligini ko‘rsatmoqda. Janubiy Koreyaning Sosan shahrida “Smart Water Management” tizimi joriy etilishi bosim datchiklarini o‘rnatish va raqamli monitoring tufayli suv sizib chiqishini 21 foiz va favqulodda vaziyatlar sonini 15 foiz kamaytirish imkonini berdi.

Shahar rivojlanish muammosi tizimli xususiyatga ega bo‘lib, transport, energetika, kommunal soha, ekologiya, suv ta’minoti va chiqindilarni boshqarishga ta’sir qiladi. Biroq xalqaro tajribaga ko‘ra, innovatsion yechimlarni to‘g‘ri moslashtirish orqali yangi barqarorlik darajasiga chiqish mumkin. Sun‘iy intellekt yordamida boshqarish tirbandliklarni kamaytirishga qodir, virtual elektr stansiyalari va mahalliy mikroarmoglar energiya tizimini mustahkamlaydi, kommunal tarmoqlarni raqamallashtirish va “aqlii” boshqarish avariylar, resurs yo‘qotishlarni kamaytiradi va barqaror foydalanishni ta’minlaydi. Chiqindilarni robotlashtirilgan saralash va shaharning “raqamli egizaklari” esa ekologik vaziyatni yaxshilash hamda yashil hududlarni kengaytirishga yordam beradi.

ADOLAT VA SHAFFOFLIK

IQTISODIY RIVOJLANISH
POYDEVORI

Yaqinda soliq tizimiga daxldor yaqin do'stim bilan suhbatlashib qoldim. Uning aytishicha, bugun tizimda jiddiy yangilanishlar amalga oshirilayotgan ekan. Ayniqsa, elektron hisobvaraqa-fakturalar (EHF) bilan bog'liq tartiblarga katta e'tibor qaratilayotgani o'tuvchi ekan, taajjub uyg'i izohlari

bir voqeani ham misol sifatida keltirdi.

Joriy yil iyulida endigina ro‘yxatdan o‘tgan va rasman chorvachilik faoliyati bilan shug‘ullanish uchun tashkil etilgan MCHJ o‘zining ilk shartnomasi doirasida qariyb 1 trillion so‘mlik, aniqrog‘i, 896 milliard so‘m (shundan 96 milliard so‘mi QQS) qiymatidagi qora metall sotish bo‘yicha elektron hisobvaraqa-faktura rasmiylashtirgan. Bu holatni eshitgach, o‘rinli savol tug‘iladi: chorvachilik xo‘jaligi qanday qilib sanoat miqyosida metall sotish darajasiga yetadi?

Endi masalaga kengroq yondashsak. Aslida, bu kabi holatlar faqat bir shaxsning uddaburonligi yoki muvaffaqiyatga intilishi bilan izohlanmaydi. Bu kengroq tushunchani ifodalaydi. Nafaqat soliq tizimi ishonchligini, balki umumiy iqtisodiy muhitni ham shubha ostida qoldiradi. Chunki hisob-kitoblarga tayangan jamiyatda, agar hisobvarag‘idagi raqamlar real iqtisodiy faoliyatni aks ettirmasa, har qanday biznes munosabatining poydevori bo‘lgan o‘zaro

ishonchga putur yetadi. Bir hujjat ortidagi soxta ma’lumot nafaqat davlatni, balki bevosita mijozni, hamkorni, hatto bozorda o‘z o‘rniga ega bo‘layotgan boshqa halol tadbirkorni ham aldad, iqtisodiy munosabatlarni zanjirida uzulish paydo qiladi.

Zero, jamiyatdagi o‘zaro ishonch iqtisodiy ko‘lamdorlikning ko‘rinmas zanjiridir. Bir tadbirkor hujjatda real faoliyatga muvofiq kelmaydigan ma’lumotni kiritishi boshqa tadbirkorda noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi. Bu esa u bilan tuzilgan kelishuvda aldanish yoki muayyan moliyaviy risklarga olib keladi. Umumiy natijada “ishonchli hamkorlik” degan tushunchaning qadri pasayadi. Jamiyatda halol va qonuniy faoliyat yuritayotgan tadbirkor ham o‘zini ehtiyot qilishga, hatto ishonmaslikka majbur bo‘ladi. Bu bozor iqtisodiyotidagi rivojlanishga zid holat.

Aynan shunday xavfli tendensiyalarning oldini olish maqsadida davlat tomonidan soliq ma’urchiligida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri elektron hisobvaraqa-fakturalarni xavf darajasiga ko‘ra avtomatik baholash tizimidir. Ushbu yangi tizim 2026-yil 1-yanvardan boshlab amaliyotga to‘liq joriy etiladi.



— Yangi tizimning muhim jihati shundaki, elektron hisobvaraqa-fakturalarni rasmiylashtirish jarayonining o‘zidayoq hujjatdagi ma’lumotlar ishonchligi, iqtisodiy asoslangani va qonunbuzarlik ehtimoli avtomatik tahlil qilinadi. Xavf darajasi yuqori deb topilsa, ma’lumot xaridorga ham ko‘rsatiladi. Bu esa jamiyatda ishonchsizlik emas, balki hushyorlik, xolisona baholash va mas’uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Chunki biz ko‘pincha “ishonchli hujjat” deb qabul qilgan ma’lumot aslida qayta tekshirilishi lozim bo‘lgan vositaga aylanib qolmoqda, — deydi Soliq qo‘mitasining jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Muzaffar Nazarov. — Ayni vaqtda ushbu tizim sinov tartibida ishlatilmoqda. U orqali tadbirkorlar yo‘l qo‘yayotgan ko‘plab xatolar va shubhali hisob-kitoblar avtomatik aniqlanmoqda. Ammo bu holatlar bo‘yicha hozircha jazo choralari qo‘llanmayapti. Bu

davr islohotga tayyorgarlik bosqichi, soliq intizomini shakllantirish va huquqiy ongini oshirish uchun zarur mezonlarni belgilash paytidir.

Masalan, muayyan korxona nomiga ko‘p milliard so‘mlik hisobvaraqa-faktura rasmiylashtiriladi, ammo korxonada ishchi kuchi, uskunalar yoki logistika vositalari mavjud emas. Yo‘ni iqtisodiy operatsiya qog‘ozda bor, lekin hayotda yo‘q. Bunday holatlar qonunbuzarlik deb atalmasa-da, amalda jamiyatda ishonchli iqtisodiy munosabatlarga tahdid hisoblanadi.

Yangi tizimda yuqori xavfli deb baholangan elektron hisobvaraqa-fakturalar umumiy hisobot davridagi hujjatlarning 10 foizidan oshmasligi lozim. Qolaversa, shunday hisob-fakturalarda ko‘rsatilgan QQS (qo‘shilgan qiymat solig‘i) summalari faqatgina tegishli to‘lovlar davlat byudjetiga amaliy ravishda to‘langanidan so‘nggina hisobga olinadi. Bu esa “qog‘ozda emas, pulda” degan tamoyilni ilgari suradi va iqtisodiy munosabatlarda “rasmiylashtirish” emas, balki “amalga oshirish” mezonini ustuvor qiladi.

Aslida, mazkur avtomatlashtirilgan tizimning joriy etilishiga sabab bo‘lgan holatlar bir necha yil davomida to‘plangan tajriba, kuzatuv va tahlillar asosida shakllangan. Iqtisodiy faoliyatning haqiqiy manzarasini aks ettirmaydigan hujjatlar — elektron hisobvaraqa-fakturalar orqali yuz bergan buzilishlar ko‘lami jiddiy muammoga aylangan edi.

2025-yilning iyul-sentabr oylaridagi tahlillarga ko‘ra, 27 nafar soliq to‘lovchi tomonidan iqtisodiy mazmunga mos kelmaydigan operatsiyalar amalga oshirilgan. Bu korxonalar orqali 281 ta boshqa yuridik shaxsga 5,9 trillion so‘mlik hisobvaraqa-fakturalar rasmiylashtirilgan va natijada 706 milliard so‘m QQS hisobga olingan. Bu raqamlar shunchaki buxgalteriya xatosi yoki



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



texnik nosozlik natijasi emas, qasddan qilingan harakatlarning belgisi.

Gap ishchi kuchi yo‘q, mulkka egalik qilmaydigan, hatto ofis va ombori bo‘lmagan, bir necha oylar davomida faoliyat yuritmagan, lekin bir necha kun ichida yuzlab milliard so‘mlik tovar aylanmasini hujjatda aks ettirgan korxonalar haqida gap ketmoqda. Bunday holatlar jamiyatdagi adolati raqobat tamoyillariga zarba beradi. Agar hali-hanuz bunday amaliyotlarga yo‘l qo‘yilsa, halol ishlayotgan tadbirkor uchun qonun va bozor qoidalarini o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi.

Shuning uchun ham soliq organlari tomonidan yangi tizimning joriy etilishi nafaqat fiskal nazoratni kuchaytirish, balki biznes muhitini sog‘lomlashtirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanmoqda. Mazkur tizimda

inson xatosi yoki subyektiv qarash uchun joy qoldirilmagan barcha baholash avtomatik algoritmlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa tadbirkorlarga teng sharoit, shaffof hisob-kitob va adolati raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi.

E’tiborlisi, so‘nggi oylarda Soliq qo‘mitasi o‘z rasmiy veb-sayti va axborot kanallari orqali tadbirkorlar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan qo‘pol xato va qonunbuzarlik holatlarini ochiq e’lon qilib bormoqda. Bu amaliyot bir necha jihatdan foydali: avvalo, tadbirkorlar o‘rganadi, xatolaridan xulosa chiqaradi. Ikkinchidan, jamiyatda hisob-kitoblardagi aniqlik, faoliyatdagi mas’uliyat va iqtisodiy munosabatlardagi ishonch mezonlari mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, mazkur yangilik tadbirkorlarning huquqlari va manfaatlari himoyasiga ham xizmat qiladi. Chunki xaridor yoki hamkor hisobvaraqa-fakturaning xavf darajasi haqida oldindan ogohlantiriladi. Bu unga qaror qabul qilishda yanada mas’uliyatli bo‘lish, shubhali shartnoma tuzishdan saqlanish va biznesni xatardan muhofaza qilish imkonini beradi.

Endigina biznesga kirib kelayotgan yosh tadbirkor yoki niyat qilgan ishbilarmon uchun eng katta to‘siqlardan biri noma’lumlik va ishonchsizlik muhiti. Agar bozorda soxta aylanmalar hukmron bo‘lsa, bu haqiqiy mehnat va tashabbus orqali ish boshlagan insonlarning ruhini sindiradi. Shu bois, yangi tizim faqatgina “tekshiruvchi mexanizm” emas, balki islohotlar orqali adolati qonun qor toptirish vositasidir.

Zero, o‘zaro ishonch, adolat va shaffoflik iqtisodiy barqarorlikning poydevoridir. Agar hisob-kitoblarda soxta ma’lumotlarga yo‘l qo‘yilsa, bu poydevorga putur yetadi. Ammo barcha ishtirokchi — davlat, tadbirkor va jamiyat birgalikda, ayniqsa, raqamli tuzilmalar orqali shaffof tizim yaratishga harakat qilsa, nafaqat soliq yig‘imlarini oshiradi, balki yurtdagi umumiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Elektron hisobvaraqa-fakturalarni xavf darajasiga ko‘ra baholash tizimi O‘zbekistonda soliq sohasidagi tub islohotlarning mantiqiy davomidir. Bu tizim jamiyatdagi ishonch muhitini qayta tiklash, biznesda adolati qaror toptirish va faoliyatni raqamli tizimlar asosida qonuniy yo‘lga qo‘yishning muhim asosi. Iqtisodiy munosabatlarda ishonch tiklansa, to‘langan har bir soliq o‘z o‘rnida qadrlanadi. Iшонch kuchaysa, hamkorlik kengayadi. Hamkorlik kengaysa, faoliyat samarasi oshadi. Samarali faoliyat esa, shubhasiz, xalq farovonligi va davlat ravnaqiga xizmat qiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

KASBIY TA’LIMNING
UZOQ MUDDATLI
STRATEGIYASI

Zamonaviy, raqobatbardosh va xalqaro standartlarga mos ta’lim tizimi yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim poydevorlaridan biridir. Bugun inson kapitaliga e’tibor davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Zero, qaysi sohani olmang, uning muvaffaqiyati, avvalo, malakali kadrlar tayyorlovchi ta’lim tizimiga bog‘liq.

Sharh

Shu ma’noda, keyingi yillarda ta’lim sohasiga qaratilgan e’tibor va amaliy chora-tadbirlar natijasida ulkan o‘zgarishlar kuzatilayotganini alohida ta’kidlash o‘rinli. Bugungi kunda kasbiy ta’lim tizimidagi islohotlar esa yangi avlod kadrlarini tayyorlashning mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi.

Prezidentimizning joriy yil 23-oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va shu kuni qabul qilingan “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ta’lim sohasidagi strategik burilish nuqtasi, desak mubolag’a bo‘lmaydi. Ushbu hujjatlar nafaqat tizimni qayta qurish, balki uni xalqaro andazalarga moslash, mehnat bozori talablariga javob beradigan, ishlab chiqarishga tayyor mutaxassislar yetishtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Qaror bilan belgilangan Kasbiy ta’lim tizimini 2030-yilga qadar isloh qilishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari sohadagi aniq “yo‘l xaritasi”dir. Masalan, texnikumlarda xalqaro va qo‘shma ta’lim dasturlari sonini 250 taga yetkazish, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta’lim bilan qamrovini 50 foizgacha oshirish, dual ta’lim ulushini 40 foizga yetkazish, ishlab chiqarish ta’limi ustalarining kamida 30 foizi kasbiy sertifikatga ega bo‘lishini ta’minlash kabi vazifalar nafaqat statistik ko‘rsatkich, balki tizimdagi sifat o‘zgarishining mezonini hamdir.

Ana shu maqsadlarga erishish uchun tizimli boshqaruv, ilmiy yondashuv va aniq mas’uliyat zarur. Shu bois, Oliy ta’lim, fan va innovatsiya-lar vazirligi huzurida Kasbiy ta’lim agentligi tashkil etilishi o‘ta dolzarb qadam bo‘ldi. Agentlik faqatgina ma’muriy organ emas, balki kasbiy ta’lim sohasidagi siyosiy, ilmiy va metodik markaz sifatida faoliyat yuritadi. U texnikumlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ta’lim dasturlari mazmuni va bitiruvchilar malaka darajasini belgilash, o‘quv-metodik ta’minotni takomillashtirish bilan shug‘ullanadi. Bu orqali har bir ta’lim muassasasi yagona milliy



standart, shu bilan birga, xalqaro mezonlarga mos ravishda faoliyat yuritadi.

Qarorda belgilangan yana bir muhim jihat mehnat bozori bilan ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashdir. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Migratsiya agentligi hamda kasbiy ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik tizimlari yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa aholining turli qatamlari, jumladan, ishsiz va kasbi bo‘lmagan fuqarolarni vaucher tizimi asosida kasbga o‘qitish, xorijiy til va zamonaviy malaka dasturlari orqali ish bilan ta’minlash imkonini beradi. Natijada kasbiy ta’lim nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagi uchun ham yangi imkoniyat eshigini ochadi.

Islohotlarning yana bir muhim jihati dual ta’limni keng yo‘lga qo‘yishdir. 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab dual ta’lim oluvchi o‘quvchilarga oylik stipendiya to‘lanishi belgilangan o‘quvchi uchun ham, ishlab chiqarish uchun ham rag‘bat manbai. Bu tizim orqali o‘quvchi o‘qish jarayonidayoq ish tajribasiga ega bo‘ladi, ishlab chiqarish korxonalari esa tayyor kadrlar bilan ta’minlanadi.

Shu bilan birga, farmon va qarorda belgilangan yana bir muhim va ramziy tashabbus 2026-yildan har yili 5-mayning Kasb va mehnat kuni sifatida nishonlanishi bo‘ldi. Bu sana faqat bayram emas, balki mehnat va kasbga munosabtni yangi bosqichga ko‘tarish, jamiyatda kasbiy faoliyatning qadriini oshirish, mehnat sohasi egalariга hurmat va e’tiborni kuchaytirishning amaliy ifodasidir. Bu kun doirasida yoshlar orasida kasblar jozibadorligini oshirish, ularni aniq maqsad sari yo‘naltirish, turli mahorat talonvlari, ko‘rgazma va ilhomlantiruvchi uchrashuvlar orqali kasbiy ta’limni ommalashtirish ko‘zda tutilgan.

Kasb va mehnat kuni joriy etilishi yoshlar orasida “mehnat — sharaf, kasb — hunar” degan qadriyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu tashabbus har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlarda o‘z qobiliyatini anglash, mehnat orqali jamiyatga foyda keltirish, o‘z kasbi bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi. Zero, mamlakat taraqqiyoti mehnatkash insonlar, o‘z ishiga sid-qidildan yondashuvchi mutaxassislar qo‘lida.



Sobir TURSUNOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Shu bois, mazkur bayram faqat nishonlanadigan sana emas, balki yangi avlod ongida mehnat madaniyatini shakllantiradigan ma’naviy maydon sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, texnikumlar faoliyatini baholashning milliy reytingi joriy etilishi ta’lim sifati uchun kuchli motivatsiya bo‘ladi. 2026-yildan boshlab eng yuqori o‘rinni egallagan 50 ta texnikum BHMning 3000 baravari miqdorida rag‘batlantirish belgilangan. Bu islohot ta’lim muassasalarini sifati ta’lim, samarali menagement va innovatsion yondashuvga undaydi. Shuningdek, Prezident sovrini uchun o‘tkaziladigan kasbiy mahorat milliy tanlovi yoshlarning kasbga qiziqishini oshiradi, ularni ijodiy va amaliy faoliyatga ilhomlantiradi.

Hujjatlardagi yana bir muhim masala texnikumlarning huquqiy va moddiy barqarorligini ta’minlashdir. 2030-yilga qadar ularni tugatish yoki xususlashtirishga moratori joriy etilgani ta’lim muassasalarining



tinch, uzluksiz va barqaror faoliyat yuritishi uchun kafolatdir. Bu orqali davlat kasbiy ta’lim sohasini uzoq muddatli strategiya asosida rivojlantirish maqsadini aniq ifodaga etdi.

Albatta, bunday islohotlar nafaqat hujjat darajasida, balki hayotning o‘zida amaliyotiga aylanishi kerak. Bunda pedagoglar malakasini oshirish, ularni xorijga stajirovkaga yuborish dasturlari katta ahamiyatga ega. Kelgusi yillarda bunday ustozlar sonini 100 nafari dan 2500 nafarga yetkazish rejsi kadrlar salohiyatini sifat jihatidan yangi pog‘onaga olib chiqish demakdir.

Bir so‘z bilan aytganda, farmon va qaror Uchinchi Renessans g‘oyasini amalga oshirishda ta’lim tizimi, ayniqsa, kasbiy ta’limning o‘rni beqiyos ekanini yaqqol namoyon etdi. Ushbu hujjatlar yangi avlod mutaxassislarini tarbiyalash, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash, eng muhimi, zamonaviy dunyo bilan teng qadam tashlaydigan yoshlarni voyaga yetkazish yo‘lidagi mustahkam huquqiy va amaliy poydevordir.

Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimi islohotlari shunchaki dastur emas, balki kelajakning yangi modeli. Ushbu islohotlar orqali vatanimizda bilimli, o‘z kasbining ustasi, zamonaviy fikrlovchi va ijodkor avlod shakllanadi. Ana shunda Uchinchi Renessans g‘oyasi hayot haqiqatiga aylanadi.



Milliy
davlatchiligimiz
tarixidan

TEMURIYLAR DAVRIDA
ILM-FAN VA MADANIY HAYOT

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasidagi tub yangilanishlar, yuksalishlar bilan birga milliy davlatchilikni yanada mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotni rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmog‘da. Xususan, tarix fanida ham ajdodlarimiz tarixini o‘rganish va ularga xolis baho berish, shu asosda milliy qadriyatlarimizni tiklash uchun yangicha yondashuv va imkoniyatlar yaratildi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Bizning havas qilsa arziydigan ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor”.

Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng kultepaga aylangan Turkiston zaminini 150 yil davomida istibod ostida qoldi. Mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi ozodlik bayrog‘ini baland ko‘tarib maydonga chiqqan va xalqning asiy ezgu niyati — mustaqillikni qo‘lga kiritgan yetuk tarixiy shaxs Amir Temurdir.

O‘zbek davlatchiligi hamda harbiy mahorat sohasida jahon tarixidan munosib o‘rin egallagan Amir Temur davri nafaqat o‘lkamiz, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan zamon sifatida hali ko‘plab tadqiqotlarni taqozo etadi. Zero, Sohibqiron Amir Temur elu ulus taraqqiyoti, tinchligi va xavfsizligini o‘z orzu-umidlarida mujassam etgan xalqimiz farzandi, “Temuriylar Rennessansi” asoschisidir.

Buyuk Sohibqiron mamlakatni rivojlantirishda ilm-fanning ahamiyati beqiyos ekanini chuqur tushunar edi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temurning o‘zi ham tibbiyot, matematika, falakiyot, me’morlik va tarix ilmidan yaxshi xabardor bo‘lgan.

Amir Temur bilan yuzma-yuz o‘tirib suhbatlashgan Ibn Xalduinning ta’kidlashicha, ulug‘ jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini o‘zida aks ettirgan kitoblarni chuqur o‘rgangan, shuningdek, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlarini yaxshi o‘zlashtirgan.

U mashhur olimu fuzalolar bilan adabiy anjumanlar, kitobxonlik majlislari tashkil qilgan. Qolaversa, Amir Temur saroyida boy kutubxona mavjud bo‘lib, u yerda zamonasining mashhur kishilari faoliyat ko‘rsatgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning ta’kidlashicha, Amir Temurning bosh devonida “Manzumayi turk” nomli kitob tuzilgan. Mazkur asarning yozilish jarayonida Amir Temur uning har bir parchasini shaxsan bir necha marta o‘qib chiqib, tuzatishlar kiritgan, tahrir qilgan. Qo‘shimcha dalillarga ehtiyoj tug‘ilganida esa tegishli maskanlarga maxsus odamlar yuborib, voqealarning aniq-ravshan, tarixiy haqiqatga mos va davomiy tartibda yoritilishini ta’minlagan.

Amir Temur saroyida ko‘plab ilm-ma’rifat kishilari hukmdorning marhamatidan bahramand bo‘lib xizmat qilardi. Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono No‘moniddin



Xorazmiy, Xo‘ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy shular jumlasidan. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morlik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalarini ravnaqiga katta e’tibor berardi.

Sohibqironning bu boradagi xayrli ishlar keyinchalik uning avlodlari tomonidan davom ettirildi.

1405-1447-yillarda saltanatni boshqargan Shohruh Mirzo hukmronligi davrida Temuriylar davlati ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, saltanat poytaxti Hirot Samarqand kabi Sharqning madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shohruh Mirzo Hirotida dong‘i dunyoga yoyilgan mashhur olimlar va shoirlar asarlari to‘plangan nihoyatda boy kutubxona tashkil qilgan edi.

Movarounnahr sultoni Mirzo Ulug‘bek matematika, falakiyot, handasa va tarix fanlarida o‘zining buyuk kashfiyotlari bilan o‘chmas iz qoldirdi. O‘zi yoshligidanoq otasi Shohruh Mirzoning kutubxonasida ko‘p vaqtini kitob mutolasi bilan o‘tkazgan. Binobarin, Afilotun, Arastu, Gipparx, Ptolomey, Farg‘oniy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy va Xorazmiy kabi



yirik olimlar asarlari bilan yaqindan tanishgani shubhasiz.

1417-yilda G‘iyosuddin Jamshid Koshiyning o‘z otasiga Samarqand ilmiy maktabi to‘g‘risida yozgan xati qimmatli yodgorlik hisoblanadi. Maktabda Mirzo Ulug‘bek olim va ilmiy maktab homiysi sifatida ta’riflanadi.

Mirzo Ulug‘bek davrida Samarqand zamonasining noyob kitoblari saqlangan boy kutubxona mavjud bo‘lib, unda o‘sha davrning yetuk olimlari, o‘nlab hassos shoirlar faoliyat yuritir hamda kutubxonadagi qadimiy kitoblarni o‘rganib, ularning xalq o‘rtasida tarqalishida

2025-yil
17-noyabr, 238-son



Yangi tahrirdagi
Konstitutsiyamiz
muqaddimasida
“davlatchiligimiz rivojining
uch ming yildan ziyod tarixiy
tajribasi, shuningdek, jahon
sivilizatsiyasiga beqiyos
hissa qo‘shgan buyuk
ajdodlarimizning ilmiy,
madaniy va ma’naviy merosi”
alohida ta’kidlanadi.

nisbatan yanada gullab yashnadi. Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo ta’riflaganidek: “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazr eldin Xuroson, bataxis Hiriy shahri mamlu edi. Har kishining bir ishga mashg‘ullug‘i bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishini kamolga tegurgay”.

Sulton Husayn Mirzo davrida Hirot fan va madaniyat markaziga aylandi. Bu davrda Hirotga olimlar, shoirlar, adiblar, rassomlar, xattotlar, musiqachilar kirib kela boshladi. Jumladan, tabib Husayn jarroh ichakni kesib davolashda chumolidan foydalanish usulini ixtiro qilgan. Musiqi ilmda esa ustod Sayid Ahmad G‘ijjak, ustod Shohquli G‘ijjak, ustod Qul Muhammad Udiy, ustod Husayn Udiy, ustod Shayx Foniyy Noyi Xurosonda nom chiqargan yetuk musiqashunoslardan bo‘lgan.

Naqqoshlik va xattotlik sohasida Xoja Mirak Naqqosh, Mavlono Hoji Muhammad Naqqosh va buyuk iste’dod sohibi ustod Kamoliddin Behzod o‘z mahoratlari bilan Xuroson dovrug‘ini olamga yoigan edi.

Temuriylar davri tasviriy san’at maktabi namoyandalari haqida so‘z borganda Kamoliddin Behzod faoliyatini alohida ta’kidlash lozim. Zero, dunyoga dong‘i ketgan mashhur musavvir ijodining boshlanish va taraqqiy etish nuqtasi ham aynan Sulton Husayn Mirzo zamoni mahsuli edi.



Kamoliddin Behzod Boysung‘ur Mirzo tomonidan asos solingan Hirot tasviriy san’at maktabi faoliyatini taraqqiy ettirdi. Behzod Mir Alisher Navoiy, Sulton Husayn Mirzo, Mavlono Mirak singari ma’rifatparvar olimlar davrasida tarbiyalandi va yetuk musavvir san’atkor bo‘lib yetishdi.

Shuningdek, mazkur davrda me’morlik ham rivojlandi. Tarixchi Xondamirning bergan ma’lumotiga ko‘ra, qirqa yaqin yirik inshoot Sulton Husayn Mirzo davrida vujudga kelgan. Binobarin, Hirot XV asr oxiridagi o‘z ko‘rkamligi va obodonligi sohasida Sulton Husayn Boyqaro Mirzodan va Alisher Navoiydan minnatdor bo‘lsa ajab emas.

Amir Temurning yana bir avlodi, yetuk sarkarda, hassos shoir, talantli adib Zahiriddin Muhammad Bobur aqlli, o‘qimishli, ziyrak, tadbirkor va jasur inson bo‘lgan. U ham tarixchi, ham shoir, ham yozuvchi edi, musiqa ilmi, she’riy uslub hamda harbiy san’at haqida ilmiy risolalar yozgan. Uning “Bobumoma” asari jahon tarixchilari va sharqshunoslarini hamon qiziqtirib kelmog‘da.

Bobur Xo‘ja Ahroming tasavvufga oid “Volidiya” asarini nazma solib, eski o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, allomaning “She’rlar devoni” bo‘lib, mazkur devon Boburning Lutfiy va Alisher Navoiydan qolishmaydigan darajada yetuk shoir ekaniga dalildir. Shu bilan birga, Bobur soliq solish tartiblariga bag‘ishlangan “Mubayyin”, aruz ilmigga mansub “Muxtasar” kabi asarlar muallifi hamda “Xatti Boburiy” ixtirochisidir.

Xulosa qilib aytganda, Sohibqiron Amir Temur tomonidan asos solingan ilm-fan, me’morlik, madaniyat hamda san’at namoyandalari hamiylik qilish an’asini uning avlodlari tomonidan izchil davom ettirildi va “Temuriylar renessansi” fenomeni yuzaga keldi.

Xurshid FAYZIYEV,
O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat
muzeyi direktori

G'aroyib suhbat

Tunov kuni O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning saylanmasini varaqlash asnosida “Uchinchi odam” she’rini o‘qiyotib, kunchiqar yurt xalqi bisotidagi ma’naviy jihatdan chuqur ma’noga ega bir aqida yodimga tushdi. Emishki, “Insonning uchta yuzi bo‘ladi: birinchisi — tashqi (ishxona va ko‘cha uchun), ikkinchisi — ichki (oila va yaqinlari uchun), uchinchisi — asi (odamning o‘zi yolg‘iz paytidagi haqiqiy, tabiiy, ichki) yuzi. Aynan uchinchisi uning haqiqiy yuzidir va bu yuzni inson o‘zidan boshqa hech kimga ko‘rsatmaydi”.

Aksariyat insonlar kabi kamina ham yolg‘izlikda o‘sha uchinchi qiyofa bilan qolaman va boshqacha — sokin, o‘ychan alfozda beixtiyor o‘zim bilan qizg‘in suhbatga kirishaman. Bu jarayon ko‘pincha ichimdagi “men” bilan “o‘zim”ning bahs va tortishuvimizga aylanib ketadi. Bugun negadir ushbu gurunglarning ayrimlarini qog‘ozga tushirish istagi jo‘sh urdi.

Oila va tarbiya

Men: — Hazrat Jaloliddin Rumiy “Yo asling kabi ko‘rin, yo ko‘ringaning kabi bo‘l”, deb yozib qoldirgandan beri insoniyat sakkiz asr yashadi. Xo‘sh, bu masalada nega aksariyat odamlarning titi uzun emas? Jumladan, sening ham...

O‘zim: — Afsuski, shunday. Xalqimiz asli kabi ko‘rinmagan yoki ko‘ringani kabi bo‘lmagan kishilarni munofiq deb ataydi. Munofiq so‘zi lug‘atda “mug‘ombirlik qilmoq”, “ikkiyuzlamachi” degan ma’noni anglatadi. Mavlono Rumiyning bejiz esga olmading. Bilaman, ul zotning tafakkur gulshaniga sayr qilishni, boshqalar katta-katta roman va yostiqliq kitoblarda aytmogchi bo‘lgan



muddaalardan ko‘ra, yuki og‘ir, qisqa satrlarda ifodalangan dono so‘zlarni bot-bot mutolaa qilib turishni yoqtirasan.

Men: — Ha, istasang, Rumiy yozib qoldirgan hikmatlarni bir chekkadan esga olishim mumkin, faqat bunga bir kun yetmaydi degan xavotirim bor. Hozir aytilgan iqtibosning to‘liq ifodasi bunday: “Sevdiga quyosh kabi bo‘l. Do‘stlik va qardoshlikda oqar suv kabi bo‘l. Birovlarning xatolarini yopishda kecha kabi bo‘l. Tavozeda tuproq kabi bo‘l. G‘azab onida o‘lik kabi bo‘l. Har ne bo‘lsang bo‘l — yo asling kabi ko‘rin, yo ko‘ringaning kabi bo‘l!”. Endi savolga javob ber.

O‘zim: — Bashariyat kabi bu masalada nega mening ham tilim uzun emasligi sababini aytaymi? Bu “xislat” menga ona suti bilan



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

kirgan, qonimda bor. Esingdami, o‘tgan asr 80-yillarining oxiri, yosh, o‘yingaroq paytlarimiz ko‘chadan yoki o‘qishdan uyga kelsak, dasturxonda bir burda non va yarim kosa ovqat bizni kutib turgan bo‘lardi. Onamiz “Bolam, shuni yeb olgin, qorning ham ochib ketgandir”, deb boshimizni silardi. Kechadan qolgan taom va suvi qochgan non biz uchun dunyodagi eng mazali yegulik o‘rniga o‘tardi. Och qoringa yutoqib, ishtaha bilan uni tanovul qilardik. Bir kuni insof berib, “O‘zingiz yemaysizmi” desam, “Qorning to‘q, hozirgina ovqatlandim, bu senga”, dedi onam. Lekin bu gap yolg‘on edi, onam meni shirin mehr bilan aldadi. Bunday holatlar juda ko‘p bo‘lardi. Onamning bu “jinyovati”ga goho otam ham sherik edi. O‘zlari yupun, biz esa bayramlarda ohorli kiyim kiyardik. O‘zlari och, bizga bunday g‘am begona bo‘lgan. O‘zlari hashamdan yiroq, hamyonlarida faqat yo‘lkiiraga yetadigan pul, bizning yonimizda esa tushlikka yetib ortadigan mablag‘, (ovozimiz do‘rillab qolgan kezlar) qo‘limizda soat, yuzimizda qora ko‘zoynak bor. Nima, ular siyrati uchun yaxshi ovqatlanish, yangi kiyim kiyish, o‘ziga oro berish istagi begona edimi? Albatta, yo‘q! Lekin ulardagi surat turgan-bitgani mening, bizning manfaatimiz uchun yolg‘onga qurilgandi. Endi o‘zing ayt: shunday ota-ona tarbiyasini olgan odamdan sen ortiqcha narsa talab qilmayapsanmi? Nazarimda, surat bilan siyratni birdek ushlash imkonsizdek.

Men: — Baribir gapni chalg‘ityapsan. Mana, hozir to‘kinlik, farovonlik zamoniku: istagan narsang muhayyo, sharoit va

puli tushganda do‘kondan menga 3-4 quti sigaret oling deb. Tunov kungisi tugab qoldi. Keyin bankomatdan ham 300 ming so‘m pul yechvoling, bugun kechga choyxonam bor”.

Quloqlarimga ishonmadim. Qani endi, zamon ko‘tarsa-yu, bu takasaltangni erkakchasiga tarbiyalab qo‘ysang. Negaki bunday nokaslarga odob, tarbiya, ma’naviyat haqida gapirish befoyda. Savolingga javob tariqasida yana Jaloliddin Rumiy hikmatlaridan keltiraman, faqat ensang qotmasin: “Ko‘rlar bozorida oyna sotmal”.

Men: — Afsuski, guruh kurmaksiz emas, bu kabi kaltabin yoshlar zamonamizda yashaydi, biz bilan bir havodan nafas oladi. Inson bu dunyoga nima uchun kelganini yaxshilab bilib,



anglab olmas ekan, har qanday yo‘l uni boshi berk so‘qmoqlarga yetaklaydi. Buni anglash jarayoni esa oila tarbiya, odobdan iborat ma’naviyat olamining ustunlari orqali amalga oshadi. Farzand tarbiyasida eng samarali usul kishi, avvalo, o‘zini tarbiya qilishdir. Boshqalarga qanday munosabatda bo‘lsang, atrofida o‘zingga bundan ortig‘ini kutmaslik kerak. Fursat esa — g‘animat! Axir ulug‘ shoir kitobida ham o‘qiding-ku:

*Inson o‘z umrini o‘ylasa ko‘p vaqt
Qinyaydi o‘zidan o‘tgan qusurlar.
Kimqadir aylilmay qolgan bir rahmat,
Kimdandir so‘ralmay qolgan uzrlar.
Mukammal ko‘rmogchi bo‘ldik dunyoni,
Yetuk bo‘lmadik o‘zimiz biroq.
O, yillar armoni, yillar armoni,
Armon ko‘rmadim men sizdan buyukroq.
Insonga tobemas zamon, inchunin,
Inson yuragida amlar qat-qat.
Faqat bir taskin bor, barchasi uchun,
Afsus cheka bilsang — shu ham bir davlat.*

Kasb va mas’uliyat

Men: — Dunyo gardishi aylanishini ko‘rib, uning mukammalligiyu tasodiflarga boy ekaniga tan bermay ilojing yo‘q. Kasbing taqozosiga ko‘ra, o‘zing ham bu narsalarga necha bor amin bo‘lgansan-ku.

O‘zim: — To‘g‘ri. Hayot yo‘li shunday komil insonlarga ro‘para qiladi, ular qalbingdan bir umr joy oladi, ularning oddiy gapidan, xatti-harakatidan o‘zing uchun tegishli saboq olasan. Gapsiz-so‘zsiz seni tarbiya qilishadi, hayotning to‘g‘ri o‘zaniga yo‘naltirib yuborishadi. Yana shundaylar qarshiding chiqadiki, ertasi kunioyq ularni unutasan, qaytib duch kelmaslik paytida bo‘lasan. Bu gaplarimga “So‘nggi paytlarda juda sermuloaza bo‘lib ketyapsan, “Aqli-aqli” gaplar bilan nasihatchiya aylanib boryapsan”, deb e’tiroz bildirib qolasan goho. Lekin nima qilay, hayotiy tajriba atalmish sandiq to‘lib bormoqda, bu sandiq to‘lgani sayin vazni yengillashib, ko‘tarish oson bo‘ladigan yuk. Yelkada bir umr ortmoqlab yurilsa ham toliqtirmaydi, qaytaga kishiga kuch, quvvat beradi. Hayot yo‘lini yoritib boradi.

Men: — Aslida, eng go‘zal inson surati va siyrati o‘rtasida muvozanat bor insondir. Agar tashqi ko‘rinishga e’tibor berilsa-yu, siyrat unutilsa, bu insonni kamolotga yetkazmaydi. Har bir inson o‘z siyratini go‘zallashtirish ushda amaliy harakatda bo‘lishi kerak: axloqini tuzatishni, ilm olishi, boshqalarga yaxshilik qilishni odatga aylantirishi lozim. Yuqorida nima demoqchiliginini tushundim, shekilli. O‘zbek sport jurnalistikasi va futbol

sharhlovchiligi maktabi asoschilaridan biri, hakam, ustoz va yozuvchi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Axbor Imomxo‘jayev bergan saboq haqida aytmogchisan.

O‘zim: — Shunday. Lekin bu saboq hayotimiz va faoliyatimizda katta ahamiyatga ega bo‘lganini tan olish kerak. Uzoq yillar televideniye efrida sport, ayniqsa, futbol o‘yinlarini sharhlab, soha bilimdoni va jonkuyari sifatida millionlab tomoshabinlarda sportning ushbu turiga muhabbat uyg‘ota olgan Axbor aka o‘z davrining juda mashhur kishisi edi.

Men: — Kel, shu gaplarni eslab, xotiramda tiklab, men ayta qolay. O‘sha paytda respublika



yoshlar gazetasi sport bo‘limini boshqarar edim. Ish yuzasidan, sport tadbirlari va musobaqalar payti u kishi bilan ko‘p mulogotda bo‘lardik. Bundan tashqari, ko‘pincha ertalab ishga borayotib, “Beruniy” metro bekati Axbor aka bilan ko‘rishib qolardik. Shunday kunlarning birida ustoz o‘zbek futbol haqida bir kitob bitayotganini aytib qoldi. Sharta gapidan ushlab oldim: “Gazetamizda yangi asardan boblarni e’lon qilaylik”. Shu zayil 1995-yilning kuz oylarida hali siyohi qurimagan yangi asarning bir nechta bobi haftada bir kun yoshlar gazetasi o‘ntacha sonida chop etildi.

Ishlash tartibimiz bunday edi: Axbor aka bilan qo‘ng‘iroqlashib, ertalab metro bekati uchrashamiz. U menga 7-8 sahifa qo‘lyozmasini (albatta, qaytarish sharti bilan, chunki u kitob bo‘lib taxlanishi kerak-da) beradi, men uni ishxonaga olib borib, mashinkada terdiraman (u paytlar kompyuter qayoqda), parcha gazetada chiqadi, keyingi uchrashuvda qo‘lyozmani mashinkada terilgan matn bilan qo‘shib qaytarib, yangi sahifalarni olib ketaman. Shunday janjir tartibini ikki oycha aylantirdik.


Bir kuni navbatdagi “oldi-berdi” oldidan oxirgi qo‘lyozmalarni hech topolmasam-da: yerdayam yo‘q, ko‘kdayam. Nailoj, faqat mashinka matnini ko‘tarib, boshimni xam qilib huzuriga bordim. Nimalarnidir g‘o‘ldirab, vaziyatni tushuntirdim. Axbor aka “Bo‘ldi, meni boshqa bezovta qilmang. essiz, shuncha mehnatim yo‘qqa chiqibdi”, deb arazlashini, zarda qilishini, dakk berishini kutdim. Lekin u o‘zining suratiga mos holda siyrati kabi yumshoq, juda muloyimlik bilan aytgan gaplari menga bir umrlik saboq bo‘ldi: “Nodirbek, ukajon, hali yoshsiz, kelajagingiz oldinda. Siz muborak jurnalist kasbini tanlagansiz. Soha vakillari uchun mas’uliyatsizlik ko‘p pand beradi. Mayli, men 5-6 varaqni qayta qoralab olarman, ammo keyingi safar xafalashib qolishimiz mumkin. Bunday keyin hushyor bo‘ling”. Ming shukrki, taqdir kelgusida xafalashib qolishimizga yo‘l bermadi. Shu-shu birovning omonatiga, mehnatiga munosabatim tubdan o‘zgardi, ehtiyotlashni, qadrlashni o‘rgandim.

O‘zim: — O‘zbek futbol tarixi, taraqqiyot bosqichlari tahlili, xotiralar, qiziqarli faktlar, futbolga aloqador ma’lumotlarga boy kitob esa “Futbol — quvonchim, dardim, faxrim” nomi bilan 1996-yil katta adadda o‘quvchilar qo‘liga yetib bordi. Hozirgacha har gal Axbor Imomxo‘jayev dastxati bilan tortib qilgan shu kitobni qo‘lga olgandagina hayotda bergan darsini yangilab olaverasan. Mayli, o‘tgan ustozlarning ruhi shod, borlarining umrlari uzoq bo‘lsin.

Jamiyat va daxldorlik

Men: — Bugungi tezkor hayotda inson haqida birinchi tasavvur ko‘pincha uning yuzi, kiyinish uslubi va tashqi ta’sirchanligiga qarab shakllanadi. Ammo inson haqiqiy ma’noda qanday baholanishi kerak: go‘zal surati bilanmi yo siyrati, ya’ni qalb va axloq go‘zalligimi?

O‘zim: — Surati go‘zal inson ko‘zga, siyrati go‘zal inson esa qalbgga yoqadi. Tashqi ko‘rinish aldamchi bo‘lishi mumkin. Hozir odamlarda tashqi go‘zallikka e’tibor ortib ketdi. Ko‘plab yoshlar tashqi ko‘rinishini idealga yetkazish uchun katta vaqt, mablag‘ va energiya sarflamoqda. Afsuski, bu jarayonda ko‘pchilik ma’naviy dunyosi, axloqiy qadriyatlari haqida



unuta boshladi. Bir zamonlar insonning yuzidagi nur, ko‘zlaridagi iffat, qalbidagi poklik uning siyratini aks ettiruvchi belgi bo‘lib xizmat qilardi. Hozir qora ko‘zoynak, sun’iy tabassum, ziynatli kiyim ortida qanday inson turganini anglash mushkul.

Jurnalist sifatida ko‘plab tadbirlarda qatnashgan paytlarimda turli toifadagi odamlar bilan suhbatlashishga to‘g‘ri kelgan. Bir kuni nafis kiyinib, so‘zini xushmuomalalik bilan boshlagan kishi hayot haqida, ma’naviyat haqida gapirar ekan, uning gaplarida qalb samimiyyati yetishmayotganini his qildim. Ammo bir dehqon otaxonning oddiy, lekin



qalbdan chiqqan so‘zlari hammaning qalbiga yetib bordi. Shu onda angladim: odamni so‘zi emas, siyrati ta’sirchan qiladi. Surati va siyrati uyg‘un inson ideallik ostonasini zabt etgan insondir.

Axborot muhitidagi mediastandardlar ko‘pincha tashqi ko‘rinishni targ‘ib qiladi. Teleshoular, ijtimoiy tarmoqlar, reklamalar insonlarga “go‘zal bo‘lish” uchun birinchi navbatda tashqi ko‘rinishga e’tibor qaratish lozimligini uqtirib keladi. Ushbu tendensiya ma’naviy bo‘shliqni vujudga keltirmoqda. Yosh avlod orasida nafaqat kim bo‘lish, balki qanday ko‘rinish kerakligini o‘ylab yashaydigan toifa paydo bo‘ldi. Ularda jamiyat rivoji, kechayotgan o‘zgarishlarga daxldorlik hissidan nishon yo‘q, tashabbus va namuna ko‘rsatish kabi fazilatlar begona.

Men: — Ancha avval, qaysidir yili tahririyat muassisi bo‘lgan idora poytaxtimizning tumanlaridan biriga mas’ul etib birlashtirib qo‘yildi. Vazifa kuz-qish mavsumini betalafot o‘tkazish, suv, gaz va elektrni tejash bo‘yicha aholi orasida targ‘ibot olib borishdan iborat edi. Tizim tarkibidagi tashkilotlar qatori sen bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlayotgan tahririyat ham tumanning bir mahallasiga mas’ul edi.

O‘zim: — Ha, esladim. Shu masalada shahar bo‘yicha katta yig‘ilish bo‘ldi. Unda hududlarga birlashtirilgan mas’ullar va tuman hokimlari ishtirok etdi. Yig‘ilishni boshqargan katta mutasaddi quyidagi mazmunda gapirdi: “Odamlar eshik-deraza romlari tirqishlariga paxta tiqishlari kerak. Suvni, elektrni, gazni tejash lozim. Erkaklar soqol olganda suvni shildiratib oqizib qo‘ymasini, soqol qirtirlashga bir stakan suv yetadi va hokazo...”.

So‘ng tuman hokimlariga joylarga chiqib, mahallalar kesimida shunday majlislar o‘tkazish haqida topshiriq berdi. Tumanda 30 dan ortiq mahalla bor edi. Oradan 2 kun o‘tib, navbat sen birlashtirilgan mahallaga keldi. Vakil sifatida majlisda tuman hokimi bilan yuqorida qo‘r to‘kib o‘tirding. Hokim so‘z olib, o‘sha katta yig‘ilishda eshitgan gaplarini takrorlash bilan chekindi: “Odamlar eshik-deraza romlari tirqishlariga paxta tiqishlari kerak. Suvni, elektrni, gazni tejash lozim. Erkaklar soqol olganda suvni shildiratib oqizib qo‘ymasini, soqol qirtirlashga bir stakan suv yetadi va hokazo”. Oddiy ko‘z bilan ham ko‘rish mumkin ediki, yig‘ilish xo‘jako‘rsinga, “Majlis bo‘ldimi?” degan savolga “Ha, bo‘ldi” degan javobni berish uchun o‘tkazildi.

Men: — O‘shanda kamdan kam chiqadigan jahling o‘zini ko‘rsatgan edi. “Odamlarga aytadigan o‘z gapingiz yo‘qmi? Har bir mahallaning o‘ziga yarasha muammolari bor, shunga qarab ish tashkil qilinsa bo‘lmaydimi? O‘zingizda bu borada tashabbus yo takliflar yo‘qmi? Hozirgidek majlisdan nima na? Insonning eng katta dushmani — loqaydlik, bunday sovuqxonlik yaxshi emas”, deding hokimga mas’ul vakil sifatida. Ko‘pni ko‘rgan, sen kabi tirmizak vakillarning anchasi bilan to‘qnash kelgan hokim ham bo‘sh kelmadi: “Boshqa kishini chaqiraymi? O‘zingiz ma’ruza qilib, taklif va tashabbus bildirasizmi?” deya kinoya qiladi.

O‘zim: — Bu kabi beparvo, jamiyat uchun jon kuydirmas, daxldorlik nimaligini bilmas rahbarlar ham, yurtdoshlarimiz ham avval ancha edi, hozir ham yo‘q emas. Lekin o‘sha mahallaning raisi juda fidoyi inson edi. U bilan maslahatlashib, birgalikda ancha xayrli ishlarga bosh qo‘shgandim. Odamlarning quvonchiga, minnatdorligiga sabab bo‘lgan harakatlarning ortidan ko‘plab rahmat va minnatdorliklar



eshitib, qancha yengil bo‘lganini, qushdek uchib yurganlarning yodingdami?

Men: — Albatta. Bu hayotda har bir insonning burchi bor: kimdir ilm tarqatadi, kimdir mehnat bilan jamiyatni tantanaga yetaklaydi, kimdir esa shunchaki bir yaxshi so‘z bilan boshqalarga ruh beradi. Menimcha, insonning haqiqiy burchi boshqalarning qalbidan nur uyg‘otish, ya’ni ezigulik urug‘ini sochishdir. Shu orqali u o‘z hayotini ham mazmunli qiladi.

O‘zim: — Ko‘rdingmi, sen bitta mahalladagi kichik natijalardan qancha quvonypasan. Endi mamlakat, davlat miqyosida kechayotgan “Inson qadri uchun” tamoyili samaralaridan g‘oya muallifi qanday quvonayotganini tasavvur qilib olaver. Xalqimiz, yurtdoshlarimizga ishonch va umid berayotgan xayrli ishlarni bardavom qilsin!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markizida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1146.
34685 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘ZA yakuni — 22:53